

UO‘K 331.5

INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQALARDA AHOLI BANDLIGINING ZAMONAVIY SHAKLLARINI JORIY ETISH**Umarova Gulandom Tumanovna** - mustaqil tadqiqotchi, E-mail: imkoniyat2010@mail.ru

Toshkent moliya instituti, Toshkent sh., O‘zbekiston

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada mintaqa innovatsion salohiyatini oshirishning bandlik darajasi va uni tarmoq tarkibidagi ahamiyati qisqacha yoritilgan. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar hamda bandlikning zamonaviy shakllari haqida ma’lumotlar berilgan.*

Mintaqa innovatsion salohiyatini oshirishda inobatga olinishi lozim bo‘lgan omillar o‘rganilgan.

***Kalit so‘zlar:** innovatsiya, ilm fan, raqamli texnologiyalar, mintaqa, aholi bandligi, investitsiya, klaster, sanoat zonalari, innovatsion markazlar, texnopark.*

УДК 331.5

РЕАЛИЗАЦИЯ СОВРЕМЕННЫХ ФОРМ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ В РЕГИОНАХ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ**Умарова Гуландом Тумановна** – самостоятельный соискатель,
E-mail: imkoniyat2010@mail.ru

Ташкентский финансовый институт, г.Ташкент, Узбекистан

***Аннотация.** В данной статье кратко освещено значение уровня занятости и структуры сети повышения инновационного потенциала региона. Дана информация о социально-экономических изменениях и современных формах занятости, возникших в результате развития цифровых технологий.*

Изучены факторы, которые следует учитывать при повышении инновационного потенциала региона.

***Ключевые слова:** инновация, наука, цифровые технологии, регион, занятость населения, инвестиции, кластер, промышленные зоны, инновационные центры, технопарк*

UDC 331.5

IMPLEMENTATION OF MODERN FORMS OF POPULATION EMPLOYMENT IN REGIONAL INNOVATIVE ECONOMIC CONDITIONS**Umarova Gulandom Tumanovna**- independent researcher, E-mail: imkoniyat2010@mail.ru

Tashkent Financial Institute, Tashkent city, Uzbekistan

***Abstract.** The importance of the employment level and the structure of the network of increasing the innovative potential of the region is briefly covered in this article. Information is given about socio-economic changes and modern forms of employment resulting from the development of digital technologies.*

The factors that should be taken into account in increasing the innovative potential of the region have been studied.

***Keywords:** innovation, science, digital technology, region, employment of the population, investment, cluster, industrial zones, innovation center, technopark.*

Kirish

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Iqtisodiyotda boshqaruv tizimi eskirgani, innovatsion g‘oyalarni qollab-quvvatlash bo‘yicha samarali mexanizmlar o‘z vaqtida joriy qilinmagani ham jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, texnologik qoloqlik, resurs va energiyani tejaydigan texnologiyalar, muqobil energiya manbalarini tatbiq etishning sustligi ham iqtisodiy taraqqiyot yo‘lida to‘siq bo‘lmoqda” [1] deya ta‘kidlab o‘tgan edi prezidentlik lavozimiga kirishishning dastlabki yillaridayoq. Darhaqiqat, milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish va dunyo bozorlariga chiqish uchun, birinchi navbatda iqtisodiyotni izchil isloh etish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishi talab etiladi. Chunonchi, innovatsion faoliyatini rivojlantirmay turib, iqtisodiyot raqobatbardoshligiga erishib bo‘lmaydi.

Innovatsiya – bu ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanilishidir [14]. Yangi iste‘molchilik xususiyatlari yoki ishlab chiqarish tizimlarining samaradorligini sifatli amalga oshirish orqali bozorga mahsulot (tovarlar va xizmatlar)ni yetkazib berish – innovatsiyaga misol bo‘la oladi. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tishi ijtimoiy hayotning barcha sohalariga ilm-fanga asoslangan texnologiyalarning ommaviy joriy etilishi, mehnatni tashkil etishning aholi bandligi shaklining o‘zgarishiga, mehnat bozorida yangi tendensiyalar paydo bo‘lishiga olib keluvchi yangi shakllarining rivojlanishi bilan tavsiflanadi.

Uslublar

Maqolada ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez uslublaridan foydalanilgan. Maqola ma‘lumotlari ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy manbalardan olingan bo‘lib, unda xorij va o‘zbek iqtisodchi olimlarining iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsiyalarning o‘rni va ahamiyati bo‘yicha ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan. Mintaqalar rivojlanishi va aholi bandligini ta‘minlashda innovatsion jarayonlarning ahamiyatli jihatlari ilmiy o‘rganishlar asosida yoritib berilgan.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. “Innovatsiya” tushunchasini Avstriyalik iqtisodchi Y.Shumpeter iqtisodiyotda ilmiy qo‘llashga kiritgan (1900 yil) dastlabki olimlardan hisoblanadi. Uning fikriga ko‘ra innovatsiya – iste‘mol tovarlarining yangi turlari, yangi ishlab chiqarish va transport vositalari, yangi bozorlar sanoat tashkilotlarini joriy qilish va foydalanish maqsadidagi o‘zgarishlardir [13].

Ingliz professori V.R. Spenser esa innovatsiyaga – bu aniq vaziyatda mutlaqo yangi narsa, biz buni anglaganimizda foydalanishimiz mumkin [7] deb ta‘rif beradi. Rossiyalik olimlar A.Kulagin “Innovatsiya–bu innovatsion, ishlab chiqarish, institutsional moliyaviy, ilmiy-texnik va boshqa sohalaridagi yangilikdir” [5], B.Santo innovatsiya bu ijtimoiy texnik-iqtisodiy jarayon bo‘lib, u g‘oyalar va ixtirolardan amaliy foydalanish orqali o‘z xususiyatlariga ko‘ra eng yaxshi mahsulot va texnologiyalarni yaratishga olib keladi [8], L.Kantorovich “Innovatsiya – bu ixtironing amaliy ahamiyatini ajratib ko‘rsatish va uni muvaffaqiyatini ta‘minlovchi yangilikdir” [6] deb ta‘rif bergan.

E.Krayemerning fikriga ko‘ra Innovatsiya – yangi mahsulot yoki xizmatni bozorga kiritish, yangi ishlab chiqarish jarayonlarini tatbiq etish, mahsulot yoki xizmatlar, ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi shakllari yoki faoliyat turlarini ilgari surish, yangi bozorlarni tashkil etish yoki yangi jarayonning joriy bozor va mavjud bozorlarda katta ulushini qo‘lga kiritishga qaratilgan sa‘y-harakatlardir [3] deya, xorij olimlari tomonidan turli ta‘riflar keltirilgan. Ushbu tushuncha o‘zbek olimlari tomonidan ham o‘rganilgan bo‘lib iqtisodchi olim K.Shodimetov innovatsiya - bu moddiy ishlab chiqarish yoki sarmoya konsentratsiyasi emas [12] degan ta‘rif keltirsa, tadqiqotchi E.G‘affarov “Innovatsiya – bu ixtironing amaliy ahamiyatini ajratib ko‘rsatish va uni muvaffaqiyatini ta‘minlovchi yangilikdir” [11], deb ta‘rif bergan. J.Yo‘ldoshev “innovatsiya (ingliz tilidan olingan “Innovation” yangilik kiritish) - tizim ichki tuzilishni o‘zgartirish amaliyot va nazariyaning asosiy qismi”, innovatsion faoliyat esa, “yangi ijtimoiy talablar bilan a‘nanaviy meyorlarning mos kelmasligi, amaliyotning yangilanayotgan meyorlarni mavjud meyorlar bilan to‘qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmualni muommalarni yechishiga qaratilgan faoliyat” [4] deb ta‘kidlaydi.

Natija

Yuqorida keltirilgan ta'riflardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, bizningcha innovatsiya bu bozor talabidan kelib chiqqan holda jarayonlar va mahsulotlarning sifatli o'sish samaradorligini ta'minlash uchun joriy etilgan yangilik, inson intellektual faoliyati, uning fantaziyasi, ijodiy jarayoni, kashfiyotlari, ixtirolari va ratsionalizatorligining yakuniy natijasi hisoblanadi.

E.Toffler, F. Fukuyama, D.Bell, J.Neysbit kabi olimlar "Aynan innovatsion texnologiyalarga tayangan davlatgina yuksak taraqqiyot darajasiga erishadi" deyishadi. Aslida ham shunday. Zero, sanoatlashgan iqtisodiyot o'rnini asta-sekin innovatsion iqtisodiyot egallashi oddiy haqiqatdir. Natijada, yangidan-yangi bozorlar kashf etiladi. Innovatsion maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun, xususiy investitsiyalarga imtiyozlar berish, zamonaviy banklarni shakllantirish, innovatsiyalarni kafolatlash hamda sug'urtalash, kichik va xususiy biznesni qo'llab-quvvatlash, yirik texnologik loyihalar uchun milliy va xorijiy sarmoyalarni keng jalb etish talab qilinadi. Natijada, bir-birini to'ldiruvchi talablar asosida innovatsion rivojlanish yuzaga keladi. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishi ijtimoiy hayotning barcha sohalariga ilm-fanga asoslangan texnologiyalarning ommaviy joriy etilishiga, mehnatni tashkil etish ya'ni mehnat bozorida yangi tendensiyalar paydo bo'lishiga, aholi bandligi shaklining o'zgarishiga olib keladi. Bu fanda ham isbotlangan bo'lib, iqtisodchi olimlar S.R.Topildiyev, R.R.Hasanovlar "Innovatsion iqtisodiyotda asosiy e'tibor yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish, ilm talab texnologiyalar va inson faoliyatining turli sohalarini innovatsion tashkil etish, iqtisodiyotda innovatsion tizimni shakllantirish, kompyuter texnologiyalari va telekommunikatsiya tizimlariga qaratiladi" [9] deb takidlashadi.

Mintaqada innovatsion salohiyatining o'sishi, amaldagi hududiy salohiyatining texnik va texnologik yangilanishini hamda yuqori texnologiyali faoliyat turlari rivojlanishining jadallashgan sur'atlarini ta'minlaydi. Mintaqa innovatsion salohiyatini oshirish tufayli, bandlik darajasi oshishiga, uning tarmoq va hududiy tarkibi takomillashishiga erishiladi. Natijada, mintaqa iqtisodiyoti tarkibi o'zgarishi yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi yuzaga keladi. Aholining ish bilan bandligi ta'minlanadi, aholi turmush darajasi va sifati yaxshilanadi. Mintaqaga investitsiyalarini jalb qilish orqali ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, ichki va tashqi (jahon) bozorlarda mintaqa iqtisodiyotining raqobatbardoshligiga erishish mumkin.

Mamlakatda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan iqtisodiy va ijtimoiy sohada global o'zgarishlarning ro'y berishi natijasida ish bilan bandlikning zamonaviy shakllari paydo bo'ladi (1-jadval). Bandlikning ushbu turi zamonaviy hamda egiluvchan bo'lib, aholi bandligini oshirishi, qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish bilan birga aholiga asosiy ishidan tashqari qo'shimcha daromad manbai sifatida ham xizmat qiladi.

1-jadval ma'lumotlarini tahlil qilgan holda shuni aytib o'tish mumkinki, ish bilan bandlikning innovatsion shakli mehnat resurslarini ilm fanga asoslangan ishlab chiqarish jarayonlariga jalb etish, ularning innovatsion salohiyatini rivojlantirish va innovatsion xatti-harakatini rag'batlantirish borasidagi ijtimoiy munosabatlar tizimini o'zida namoyon qiladi.

Munozara

Mintaqa innovatsion salohiyatini oshirish uchun, ishlab chiqaruvchi kuchlarni ratsional (maqsadga muvofiq) joylashtirish, shu asosda uning tarmoq va hududiy tarkibini takomillashtirishga erishish zarur. Bunda ijtimoiy-iqtisodiy siyosat sanoatning xomashyo va yarim tayyor mahsulotga yo'naltirilganligini bartaraf qilishga, tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish negizida raqobatbardosh sanoat mahsuloti ishlab chiqarishni ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy mexanizm tashkil etilgan bo'lishi lozim. Iqtisodiy mexanizm yuqori ishlab chiqarish, innovatsion, tabiiy, mehnat salohiyatiga ega bo'lgan mintaqalarda hosil bo'ladigan differensial renta, qo'llanilayotgan tabiiy va iqtisodiy resurslarni takror ishlab chiqarishga ijtimoiy zaruriy sarflarni to'liq hisobga olishi zarur. Shuningdek, hududlarda ish bilan bandlikni rivojlantirishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsata oladigan yangi sanoat markazlarini ("o'sish qutblari"), tadbirkorlik hududlarini, texnologik parklarni, texnopolislar va boshqalarni tuzish, iqtisodiy jihatdan sust rivojlangan mintaqalarni rivojlangan iqtisodiy tizimlarga integratsiyalashni kuchaytirish, kapital oqib kirishi va investitsiya muhitini

sogʻlomlashtirish uchun sharoit yaratish, budget, soliq siyosatini takomillashtirish lozim. Bu mintaqalar aholisi bandligini taʼminlash uchun zaruriy shart-sharoit hisoblanadi. Iqtisodiy asosning mustahkamlanishi mintaqalarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning sifat jihatdan yangi yoʻliga oʻtishini taʼminlaydi. Aholi bandligini oshirishning yangi yoʻnalishlarini tashkil etish imkoniyatini yaratadi. Bu omillarni yetarli hisobga olmaslik bir mintaqada sanoat ishlab chiqarishini haddan tashqari konsentratsiyalashga, boshqalarida sust rivojlanishga olib keladi.

1-jadval

Bandlikning zamonaviy shakllari¹

T/r	Ish turi	Xususiyatlari va ahamiyatli jihatlari	Kamchiliklari
1	Uy mehnati	Ayrim vazifalarni uy sharoitida bajarilishi nazarda tutiladi. Bunga kasanachilik misol keltirish mumkin	Barcha xarajatlar oʻzi tomonidan qoplanadi, daromadlar beqaror boʻladi
2	Masofaviy ish bilan bandlik (telebandlar, telekommyuterlar)	Ular mehnat faoliyatini masofadan turib amalga oshiradi. Ish beruvchi hamda xodim oʻrtasida mehnat shartnomasi tuziladi	Ish beruvchi va xodim oʻrtasida faqatgina "masofaviy munosabat yuzaga keladi"
3	Mobil masofaviy ish bilan bandlik	Shaxsiy kompyuter yoki Internet aloqasi boʻlmaganda ham amalga oshirilishi mumkin. Bunga misol sifatida, savdo agentlarini keltirish mumkin	Ijtimoiy kafolatlanmaganlik
4	Frilanser	Bunda xodim, korxonaga xodim sifatida rasmiylashtirilmagan holda mehnat faoliyatini, ayrim vazifalarni bajaradi	Pullik taʼtilning mavjud emasligi

¹Izoh jadval muallif tomonidan shakllantirilgan.

Mintaqaning innovatsion rivojlanishi davlat, xoʻjalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faolligini oshirish, ishlab chiqarish tizimni jadal rivojlantirish, aholi bandligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi oshirishini ragʻbatlantirish, davlat-xususiy sheriklikchiligini kengaytirish mexanizmi orqali iqtisodiyotni tarkibiy va institutsional oʻzgartirishlar yoʻli bilan resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish hisobiga bajariladi.

Mintaqada innovatsion salohiyatini oshirish uchun:

- mintaqada mavjud ishlab chiqarish tarmoqlarini texnik va texnologik qayta jihozlash, uning yuqori material, energiya va koʻp resurs talabligini bartaraf qilish;

- mintaqada ishlab chiqarishning xomashyoga yoʻnaltirilganligini bartaraf qilish, yuqori sifatli, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish maqsadida tabiiy va qishloq xoʻjaligi xomashyosini chuqurlashtirilgan qayta ishlashga faol jalb qilish;

- ishlab chiqarishi xomashyoga yoʻnaltirilganligi bilan bogʻliq yuzaga kelgan tarmoqdagi ichki nomutanosibliklarni bartaraf qilish asosida mintaqalarda uning tarkibini takomillashtirish;

- xalqaro standartlarga mos keladigan ishlab chiqarishini kengaytirish, sifatli, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqara oladigan yuqori texnologiyali ilm fan talab sohalarni tashkil qilish asosida tashqi va ichki bozorlarda mintaqalar mavqeini mustahkamlash;

- samarali tashqi iqtisodiy faoliyat olib borish, ularning mintaqalarda rivojlanishini ragʻbatlantirish, xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish uchun birgalikdagi faoliyatni rivojlantirish, ekspert bop mahsulotlarni tashqi bozorlarga chiqarish sharoitlarini taʼminlash asosida mahsulotlar sotish bozorlarini kengaytirish, bozor munosabatlarining shakllari tarkibini, oʻzaro foydali iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish zaruriyat hisoblanadi. Ushbu mintaqaviy omillardan samarali foydalanish, mintaqalarning moddiy-texnik va moliyaviy bazasini mustahkamlash, sermahsul ish oʻrinlari tashkil etilishini hamda mahalliy aholi daromadlari oshirishini taʼminlaydigan infratuzilmaviy, ishlab chiqarish va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun mahalliy resurs va imkoniyatlarni jadal safarbar qilish yoʻli bilan amalga oshirilishi mumkin. Bunda ishlab chiqarishni samarali joylashtirish, xususiy hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun iqtisodiy va ixtisoslashtirilgan zonalar, tarmoq klasterlar, kichik sanoat zonalarini, innovatsion

markazlar, texnoparklarning afzalliklari va ustunligidan foydalanishga alohida ahamiyat berish kerak.

Shuningdek, mintaqalarda sanoat innovatsion salohiyatining o‘shishi, amaldagi ishlab chiqarish salohiyatining texnik va texnologik yangilanishini hamda yuqori texnologiyali faoliyat turlari rivojlanishining jadallashgan sur‘atlarini ta‘minlaydi [10].

Xulosa

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, mintaqa innovatsion rivojlanishi huquqiy o‘zgarishlar asosida emas, balki innovatsion faoliyat dasturlarini tashkil etish va moliyalashtirishni ta‘minlash bilan bog‘liq harajatlarni hal qilishni ham o‘z zimmasiga olishi lozim. Davlat va investorlar orasidagi o‘zaro hamkorlikning muhim elementi sifatida, innovatsion jarayonlarni boshqarish tizimi mintaka darajasida bo‘lishi uning samarasi mintaqada texnologiyalarni samarali transferi va kichik miqdordagi innovatsion firmalarning rivojlanishini taminlashi lozim.

Jahon tajribasidan ma‘lumki, yer yuzi aholisining keskin tarzda oshishi, u bilan bog‘liq holda ish bilan bandlik darajasini oshirish, ishlab chiqarish kuchlarini ish bilan ta‘minlash kabi radikal o‘zgarishlar, innovatsiyalarni keng joriy etishni odatiy holatga aylantirmoqda. Bandlikni samarali tashkil etish, ishlab chiqarishni takomillashtirish, ishchi kuchi sifati va sharoitini yaxshilash jarayonlari, innovatsion loyihalarni tatbiq etish orqali samara bermoqda.

Demak, mintaqa innovatsion faoliyatini yuksaltirish va innovatsion o‘zgarishlar intensivligini oshiruvchi amaliy rag‘batlantiruvchi omillar tizimini ishlab chiqish darkor. Bunda albatta har bir mintaq va har bir hududning individual xususiyatlari ham hisobga olinishi lozim. “Innovatsiya” bu jahon uchun yangi bilimlar, “texnologiyalarni o‘zlashtirish” insonlar uchun yangi natijalar, “innovatsiyalar” va “texnologiyalarni o‘zlashtirish” jarayonlarining birgalikda amalga oshishi esa rivojlanish garovidir.

Adabiyotlar

- [1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018–yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojatnomasi. <http://uza.uz>,
- [2] Abduraxmonov Q. Mehnat iqtisodiyoti nazariya va amaliyot. T.: 2019–y. 592 b.
- [3] Edited by Erika Kraemer-Mbula and Watu Wamae. “Innovation and the Development Agenda”. International Development Research Centre PO Box 8500, Ottawa, ON, Canada K1G 3H9. © OECD/IDRC 2010. p. 9.
- [4] Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S. A. Pedagogik texnologiya asoslari: Qo‘llanma.– T.: O‘qituvchi, 2004–y. 104 b.
- [5] Кулагин А. Оценка и самооценка научной организации. Инновационная экономика. 2011 г. Ст. 54-55
- [6] Канторович Л. Системный анализ и некоторые проблемы научно-технического прогресса. М.:Наука, 1986.
- [7] Спенсер В.Р. Инновации: теория, механизм, государственное регулирование: Учебн. пособие /Под ред. Ю.В. Яковца. – М.: РАГС, 2000
- [8] Санто, Б. Инновации как средство экономического развития [Текст]: пер. с венг. / под ред. В.В. Сазонова. – М.: Прогресс, 2005. – 296 с.
- [9] Topildiyev S.R., Hasanov R.R. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning innovatsion modellari. O‘quv qo‘llanma. T.: 2019 206 b.
- [10] Umarova G.T. “Mintaqa aholisi bandligini oshirishda sanoat innovatsion salohiyatining ahamiyati”. T.: 2020
- [11] https://journals.uz/wpcontent/uploads/2020/08/conf_19_2020/9. Iqtisodiyotda innovatsiyalar ning tutgan urni 1 qism.pdf
- [12] G‘affarov E. Innovatsiya, ijtimoiy innovatsiya va innovatsion faoliyat: ilmiy-nazariy yondashuvlar. NamDU ilmiy axborotnomasi. 2019 –yil, 10-son. 153-157 betlar.
- [13] Shodimetov Z.K. Muqobil energiya manbalaridan foydalanish va uning iqtisodiy istiqbollari – T.: “ILM ZIYO”. 2014–y. 14 bet
- [14] Шумпетер Й. Теория экономического развития. М., Директ-Медиа, 2007. 4.